

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

«Tasdiqlayman»  
Namangan muhandislik-qurilish  
instituti rektori  
Sh. T. Ergashev  
2024 yil «08» oS



NamMO  
O'quv-uslubiy bosh  
№ 54  
(BO) 08 20 24

MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI

fanning

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700000 -	Muhandislik, ishlov berish va qurilish
Ta'lim sohasi:	730000 -	Arxitektura va qurilish
Magistratura mutaxassisligi:	70730401-	Muhandislik kommunikatsiya tizimlari, qurilishi va montaji

Namangan

Fan/modul kodi MFO'M1104	O'quv yili 2024/2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4		
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haffadagi dars soatlari 4		
1	Fanning nomi Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	Audiatoriya Mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat) 120
		Ma'ruza	Amaliy		
		30	30		

### I. Fanning mazmuni

**Fanni o'qitishdan maqsad** – bo'lajak mutaxassislarni kasb ta'limi sohasidagi bilimlarini rivojlantirishni ijtimoiy-pedagogik muammolari, kasbiy-pedagogik faoliyatining tashkiliy asoslari, kasb ta'limining mazmunini nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda fan muxim ahamiyat kasb etadi. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining mazmuni, maqsadi va vazifalari, o'quv me'yoriy xujjatlarining mazmuni va moxiyati, O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limning rivojlanishi, ta'lim tizimi islohatlari, uzluksiz kasb-xunar ta'limi tizimida o'rta maxsus ta'limning o'rni, kasb ta'limining usul, shakl va vositalari bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni o'rganishda «Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi» fani alohida o'rin tutadi.

**Fanning vazifasi**- talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida maxsus fanlarni o'qitish jarayonida innovatsion va zamonaviy o'qitish usullari keltirilgan ma'lumotlar, asosiy tushuncha va qarashlar, ustuvor yo'nalishlar va xulosalarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatlarida samarali foydalanishlari xamda ijodiy yondashishlarini ta'minlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Ushbu fan ta'lim tizimidagi maxsus fanlarni o'qitishda foydalaniladigan ta'lim, metod, vosita, shakllardan samarali foydalanish yo'llarini talabalarga o'rgatishda qo'l keladi.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.1. Fan tarixiga quyidagi mavzular kiradi:

##### 1-Semestr

**1-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining mazmuni, maqsadi va vazifalari**

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining mazmuni, maqsadi va vazifalari. O'zbekiston respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik g'oyalari rivojlanishi.

**2-mavzu. O'quv me'yoriy xujjatlar ta'lim mazmuni va o'qitish mazmunini tuzishning asosi sifatida.**

Ta'lim mazmunini Davlat ta'lim standartlarida ifodalaniishi.

Mutaxassislarga kasbiy talab - Kasblar tasniflagichi: mohiyati va funktsiyalari. O'quv reja va dasturlarning mazmun mohiyati.

### 3-mavzu. Ta'lim maqsadlarini belgilash mutaxassislik fanini o'qitishni loyixalash va rejalashtirishning asosi sifatida.

Mutaxassis modeli ta'lim maqsadlarini aniqlashning asosi sifatida. O'qitish maqsadlarini belgilash yo'llari. Maqsadlar taksonomiyasi. Maxsus fanlarni o'qitishda bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini belgilash yo'llari. BLUM taksonomiyasi

### 4-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish metodlari.

O'qitish metodlarini ta'limga jarayonida o'rni va vazifasi. O'qitish metodlari tasniflanishi. Faol o'qitish metodlari va ularning xususiyatlari. O'qitish metodlarini tanlash.

### 5-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim shakllari.

Ta'limni tashkillostirish shakllari: mohiyati va mazmuni. Guruxlarda xamkorlikda ishlashni tashkil etish texnikalarining mohiyati va ahamiyati. Guruxlarda hamkorlikda ishlashni tashkillostirish texnologiyasi. Hamkorlikda o'zaro o'qitish turlari va ularning mohiyati.

### 6-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda ko'llaniladigan ta'lim vositalari.

O'quv jarayonida ta'lim vositalarini o'rni va ahamiyati. Ta'lim vositalarini tasnifi. Uning turlari va ulardan foydalanish. Grafik tashkil etuvchilarning o'rni va ahamiyati.

### 7-Mavzu. Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyixalash va rejalashtirish asoslari.

Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyixalash va rejalashtirish asoslari. O'quv mashg'ulotining tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalari. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanidan o'quv mashg'uloti loyixasini ishlab chiqish metodikasi. O'quv loyiha va uning mazmuni. Loyihaviy ta'limning asoslari o'quv loyixaviy faoliyat.

### 8-mavzu. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini loyixalash va rejalashtirish asoslari

Ma'ruza shaklida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Ma'ruza samaradorlik shartlari. Ma'ruza turlari va ularning tavsiflari. Seminar shaklida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Seminar mashg'ulotining turlari va ularning tavsiflari.

### 9-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar.

Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar. Pedagogning innovatsion faoliyati; yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontsepsiyasini shakllantirish. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishni tashkil qilishning shakli va usullariga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

### 10-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan muammoli ta'lim texnologiyalari.

Muammoli ta'limning vujudga kelish tarixi. Muammoli ta'lim darajalari. Muammoli vaziyatlar. Muammoli ta'lim texnologiyalari.

### 11-mavzu. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlari. Loyihali ta'lim texnologiyasining dolzarbligi, Loyihaviy ta'limning asoslari. O'quv loyiha. O'quv loyihaviy faoliyat.

### 12-mavzu. Amaliy vaziyatlarni hal etish uslublari va vositalari: keys-stadi.

O'quv amaliy vaziyat: tushunchasi va maqsadi. Amaliy vaziyatni tahlil qilish va hal etishning yo'llanma ko'rsatuvchi chizmasi. Amaliy vaziyatning bosqichma-bosqich tahlil qilish va yechish yo'riqnomasi. Amaliy vaziyatni tahlil qilish qoidalari.

### 13-mavzu. Talabalar mustaqil faoliyatlarini pedagogik boshqarish.

Talabalar mustaqil faoliyatlarini pedagogik boshqarishning mohiyati. Umumo'quv ko'nikma va malakalarga ega bo'lish talabalarining mustaqil faoliyatlarining asosi. O'quv fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua (O'UM).

### 14-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda test savollaridan samarali foydalanish asoslari.

Test shakllari va ulardan foydalanish. Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari. Test turlari va test topshiriqlari shakllari. Test topshiriqlarini tuzish uslublari. Test topshiriqlariga quyiladigan didaktik talablar. Test rejasini ishlab chiqish. Test tuzishdagi eng xarakterli xatolarning tahlili.

### 15-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish natijalari nazorati.

Talabalar o'quv yutuqlari nazoratining ahamiyati va uning vazifasi. Talabalar bilimlarini reyting nazorati. Talabalar bilimni nazorat qilish va baxolashning tarbiyaviy ahamiyati. O'qitish natijalari nazoratida testning o'rni. Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish yo'llari.

### III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

#### 1-Semestr

**1-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining mazmuni, maqsadi va vazifalari.**

#### *1-amaliy mashg'ulot*

1. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar.
3. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik g'oyalarni rivojlanishi.
4. Kasb ta'limi sohasida tayanch toifa va tushunchalar.

**2-mavzu. O'quv me'yoriy xujjatlar ta'lim mazmuni va o'qitish mazmuni tuzishning asosi sifatida**

#### *2-3-amaliy mashg'ulot*

1. Davlat ta'lim standartlarining mazmuni va mohiyati.

2. Maxsus fanlarni o'qitishda kasblar tasniflagichi: mohiyati va funktsiyalari.
3. Maxsus fanlarni o'qitishda o'quv rejasini mazmuni va uning funktsiyalari.
4. Maxsus fanlarni o'qitishda o'quv va ishchi dasturlarning ahamiyati va ularning vazifalari.

**3-mavzu. Ta'lim maqsadlarini belgilash maxsus fanni o'qitishni loyihalash va rejalashtirishning asosi sifatida.**

**4-amaliy mashg'ulot**

1. O'zlashtirishning birinchi darajasida o'qitish maqsadlarini belgilash yo'llari.
2. O'zlashtirishning ikkinchi darajasida o'qitish maqsadlarini belgilash yo'llari.
3. O'zlashtirishning uchinchi darajasida o'qitish maqsadlarini belgilash yo'llari.
4. O'zlashtirishning to'rtinchi darajasida o'qitish maqsadlarini belgilash yo'llari.

**4-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish metodlari**

**5-amaliy mashg'ulot**

1. O'zlashtiruvchilik o'quv faoliyatini ta'minlovchi o'qitish metodlari.
2. Amaliy o'qitish metodlari.
3. Muhokama qiluvchi o'quv faoliyatini ta'minlovchi o'qitish metodlari.
4. Mustaqil izlanuvchilik o'quv faoliyatini ta'minlovchi o'qitish metodlari.

**5-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim shakllari**

**6-amaliy mashg'ulot**

1. Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkil etish texnikalarining mohiyati va ahamiyati.
2. Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi.

**7-amaliy mashg'ulot**

1. Hamkorlikda o'zaro o'qish: tamoyil va qoidalar.
2. Hamkorlikda o'zaro o'qish: "Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing" usullari.

**6-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish vositalari**

**8-amaliy mashg'ulot**

1. O'qitish vositalari: grafikli organayzerlar- ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (xodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtasida aloqa va aloqadorlikni o'rnatishning yo'l va vositalari.
2. O'qitish vositalari: grafikli organayzerlar- ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashning yo'l va vositalari.

**9-amaliy mashg'ulot**

1. O'qitish vositalari: grafikli organayzerlar- muammoni aniqlash, tahlil qilish va rejalashtirishning vositalari.
2. O'qitish vositalari: grafikli organayzerlar- muammoni aniqlash, tahlil qilish va rejalashtirishning vositalari.

**7-mavzu. O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish asoslari**

**10-amaliy mashg'ulot**

1. O'quv mashg'ulotining tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv

faoliyati natijalari.

2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanidan o'quv mashg'uloti loyihasini ishlab chiqish metodikasi.

**11-amaliy mashg'ulot**

1. O'quv loyiha va uning mazmuni.
2. Loyihaviy ta'limning asoslari. O'quv loyihaviy faoliyat

**8-mavzu. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish asoslari**

**12-amaliy mashg'ulot**

1. Ma'ruzalarda o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish yo'llari.
2. Kirish ma'ruzasida o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish yo'llari.
3. Mavzuviy ma'ruzalarda o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish yo'llari.

**13-amaliy mashg'ulot**

1. Seminarda o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish yo'llari.
2. Suxbat -seminarda o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish yo'llari.
3. Muammoli-seminarda o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish yo'llari.

**9-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar**

**14-amaliy mashg'ulot**

1. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar.
2. Pedagogning innovatsion faoliyati; yangilikni tahlil qilish va unga baxo berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontsepsiyasini shakllantirish.
3. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishni tashkil qilishning shakli va usullariga quyiladigan zamonaviy talablar.
4. Zamonaviy ta'lim mazmuni va unga qo'yiladigan pedagogik talablar.

**10-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish natijalari nazorati**

**15-amaliy mashg'ulot**

1. Talabalar avval o'rgangan materialni tanishimi tekshirish (o'zlashtirishning I darajasi) testi maqsadi va uni ishlab chiqish yo'llari.
2. Talabalarni namunaviy topshiriqlar yechish ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirishning II darajasi) testi maqsadi va uni ishlab chiqish yo'llari.
3. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish testi maqsadi.
4. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirishning III darajasi) bo'yicha test ishlab chiqish yo'llari.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar, masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy masala va misollar echish uslubini va mustaqil echish uchun masalalar keltiriladi.

"Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" bo'yicha talabning mustaqil

ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar ehadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni ehadadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar ehadadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga berilgan vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ishlarni magistr tomonidan o'qituvchi rahbarligida bajariladi. Mustaqil ishlarni bajarishdan maqsad – magistrni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita qurilish konstruktiviyalar geometrik parametrlarini aniqlash, qurilish loyihalarni bajarishda geometrik usullarini qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish.

Fan bo'yicha magistrantlarga mustaqil ish uchun 60 soat ajratilgan. Mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida o'zlashtirish; amaliy mashg'ulotlar uchun topshirilgan, mavzuga doir masalalar, keys-stadi va o'quv loyihalarni Axborot resurs markazi manbalari ma'lumotlarini to'plagan xolda bajarish; ilmiy-amaliy anjumanlarga ma'ruza tezislari va ilmiy maqolalarni tayyorlash.

Magistrantlarning mazkur fan bo'yicha mustaqil ishni tashkil etish va uni nazorati NamMQI rektori tomonidan tasdiqlangan "Talaba mustaqil ishni tashkil etish, nazorat va baholash to'g'risidagi Nizom"i ga muvofiq fan bo'yicha mustaqil ishni tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar asosida olib boriladi.

#### Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Kasb-hunar texnikumi muassasalarida ta'lim berishning nazariy asoslari.
2. Kasb ta'limi va ta'limberish mazmuni.
3. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim berishning faol usul va texnikalari.
4. Maxsus fanlarni o'qitishni tashkillashtirishda zamonaviy tashkiliy shakllar.

<p>5. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'limberishning zamonaviy vositalari.          6. Maxsus fanlarni o'qitishda kasbga yo'naltirilgan texnologiyalar.          7. Maxsus fanlarni o'qitish jarayoni samaradorligining diagnostikasi.          8. Kasb-hunar ta'limida innovatsion jarayonlar.          9. Kasb-hunar ta'limi jarayonida ijtimoiy hamkorlik.          10. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining dolzarbligi.</p> <p><b>Mustaqil ta'lim bo'yicha tavsiyalar</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mustaqil ta'lim bevosita talaba tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladi.</li> <li>- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;</li> <li>- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;</li> <li>- Masalalar to'plamlaridan boblar bo'yicha kompleks masalalar yechish;</li> <li>- Ma'lumotlar to'plamlaridan qo'shimcha ma'lumotlar olish;</li> <li>- Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish;</li> </ul>	<p><b>3</b></p> <p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanini o'zlashtirish jarayonida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• fanning rivojlanishidagi asosiy qonuniyatlar, muammolar va qarama-qarshiliklar, ichki va umumiy qonunlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;</li> <li>• ilmiy-tadqiqot ishning mavzusini tanlab uning texnik-iqtisodiy asosnomasini tuzib bera oladi;</li> <li>• ilmiy ish mavzusi bo'yicha adabiyotlarni to'plab, tahlil qila oladi;</li> <li>• ilmiy-tekshirish ishlarni olib borishni rejasini tuzish, asboblarni tanlash va boshlang'ich xujjatlarini tuzishni o'rganadi;</li> <li>• tajribani rejalashtirish matrisasini va regressiya tenglamasini tuzish bo'yicha bilimga ega bo'ladi;</li> <li>• tanlangan modelni adekvantligini tekshirishni o'rganadi;</li> <li>• ilmiy tekshirish ish bo'yicha hisobot tuzib bera oladi;</li> </ul>	<p><b>4</b></p> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruxdarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.</li> </ul>	<p><b>5</b></p> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki test savollarni topshirish.</p>	<p><b>6</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. Xodiev Baxodir Yunusovich, Golish Lyudmila Vladimirovna.</p>
--	--	---	--	---

<p>Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma- T.: TDIU, 2010. - 97 b.</p>	<p>2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. - T.: 2010.-149 b.</p> <p>3. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.SH., Boltabaev M.R., Golish L.V., Gimranova O.B.. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik asoslari: O'quv-uslubiy qo'llanma - Toshkent: Ekonomika, 2010. 138 bet.</p> <p>4. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. - T.: 2010.- 149 b.</p>	<p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. ПФ – 158. “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида Т., 2023 йил. 37-бет.</p> <p>2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. Т. Ўзбекистон. 2016 йил. 486-бет.</p> <p>3. 2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ривожлантириш тараққиёт стратегияси тўғрисида. Toshkent, 2022 йил.</p> <p>4. Rahmonov I., Abdurahmonov A. Chizmachilardan ma'lumotnoma. O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2005.</p> <p>5. Tojirboeva D., Yo'ldoshev A. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik. - Toshkent, "Aloqachi", 2009.</p> <p>6. Olimov T., Abduquddusov O., Uzoqova L.P., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta'limi uslubiyati.- Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2006.</p> <p>7. Mirsaidov K.J., Xidirov O., Choriev R.Q. Ishlab chiqarish ta'limi. - Toshkent, "O'qituvchi", 2002.</p>	<p><b>Axborot manbaalari</b></p>	<p>1. <a href="http://www.eov.uz">www.eov.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali</p> <p>2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi</p> <p>3. <a href="http://www.twirox.com">www.twirox.com</a> - talabalar uchun sayt</p> <p>4. <a href="http://www.taai.uz">www.taai.uz</a> - Toshkent arxitektura - qurilish universiteti sayti</p>	<p>7 Namangan muhandislik-qurilish institutining ilmiy kengashida tasdiqlangan.</p>	<p>8 <b>Fan/modul uchun ma'sulalar:</b> A.Atamov- NamMQI, Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji kafedrası dotsenti.</p>	<p>9 <b>Taqrizchilar:</b> A. Alinazarov -NamMQI «Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji» kafedrası professori. Sh. Juraev -NamMQI «Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji» kafedrası mudiri, dotsent.</p>
--	---	---	----------------------------------	---	---	---	---